

MAKTABGACHA YOSHDAGI DIZARTRIYA NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BO'LGAN BOLALARNING DIQQATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALAR

Mexmonova Nodiraxon Yusufxon qizi

*Namangan viloyati Davlatobod tumanidagi 57 - sonli KIMTT (Ko'p tarmoqli
ixtsoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti) da defektoligi, Toshkent kimyo xalqaro
universiteti namangan filyali 1-kurs magestranti.*

Annotatsiya: zamonaviy texnologiyalar yordamida bolalar uchun qiziqarli va interaktiv muhit yaratish orqali ularning diqqatini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Bunday texnologiyalar bolalarga o'z nutq ko'nikmalarini rivojlanirishda yordam berish bilan birga, o'yin shaklida o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Natijada, dizartriya bilan og'rigan bolalar o'zlarini erkin his qilishadi va nutqni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, dizartriya mobil ilovalar, nutq terapevtlari, kommunikativ ko'nikmalar, ijtimoiy rivojlanish, ta'limda innovatsiyalar, zamonaviy texnologiyalar, multimedia vositalari.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda: "Maktabgacha ta'lim tizimi uzlusiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi." Bunga qo'shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo'q. Maktabgacha talim tashkilotida tarbiyalangan bola bilan maktabgacha talim tashkilotida bormagan bolani tafovutida, ularning fikrlash darajasi o'rtasida katta farq borligini sezish qiyin emas. "Shuning uchun ham biz maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bu borada katta ishlarni boshladik. Agar shu ishni har tomonlama puhta o'ylab amalga oshirmsak, butun ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz, ta'limning uzlusizligini ta'minlashimiz qiyin bo'ladi", deya ta'kidladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqat mahsulorligining rivojlanishi maktabga tayyorgarligining asosi hisoblanadi. Talim-tarbiya muassasalarida bolalarni maktabga tanlab olish masalasi hamma joylarda ham maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirilmoqda deb bo'lmaydi. Bu o'z navbatida, respublikamizdagi psixodiagnostik tanlov ishlari ananalarining hali yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi, zarur bo'lgan meyoriy ko'rsatkichlarning ishlab chiqilmaganligi kabi turkum obektiv va subektiv omillarga bog'liqdir. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab talimiga tayyorgarligidagi eng asosiy masala bola shaxsidagi diqqatning rivojlanganligiga bog'liqdir. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar

25-30 daqiqa davomida bir xil o'yinni o'ynashlari mumkin. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalar - 1-1,5 soatgacha. 4-6 yoshli bolalar ixtiyoriy e'tiborni jalb qila boshlaydilar. Diqqatning psixologik tahlilini K.D.Ushinskiy tarbiya muammosi bilan bog'lab, diqqatni boshqara bilishni aqliy rivojlanish va amaliy faoliyat uchun asosiy omil deb hisoblaydi. Diqqatning maqsadga muvofiq boshqarish yoki idrok qilish paytida asosiy ishdan tashqaridagilarga chalg'imaslik tushuniladi. Tarbiyachining vazifasi bolalarning faol diqqatini to'g'ri yo'nalishda ko'rish va ularning diqqatini o'zlarini boshqarishga o'rgatishdan iboratdir. Bu yoshda birinchi marta ular o'zlarining e'tiborlarini boshqarishni boshlaydilar, ongli ravishda ba'zi bir narsalarga, hodisalarga yo'naltiradilar, ular uchun qolish uchun ba'zi vositalardan foydalanadilar. Katta maktabgacha yoshdan boshlab, bolalar o'zlarini intellektual jihatdan muhim qiziqishlarga ega bo'lgan harakatlarga (jumboq o'yinlari, topishmoqlar, o'quv-tarbiyaviy vazifalar) e'tiborini qarata oladilar. Etti yoshga qadar intellektual faoliyatda diqqat barqarorligi sezilarli darajada oshadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar e'tiborining quyidagi xususiyatlari mavjud:

1) qisqa konsentratsiya, qisqa vaqt ichida sezilarli tebranishlarga moyilligi, bolalar bir necha marotaba faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o'tishadi, rejalarini bir necha bor o'zgartiradilar;

2) tashqi ta'sirlarga rioya qilish, hatto ozgina begona stimul ham bolaning e'tiborini faoliyatdan chalg'itadi;

3) mashg'ulot turiga qarab, 4 yoshli bolalar qiziq ertakni diqqat bilan tinglashlari yoki 20 daqiqa yoki undan ko'proq vaqt davomida multfilbmlarni tomosha qilishlari mumkin, ammo ular kuku boshlangandan 5 minut o'tgach, qiziq bo'lman mashg'ulotlardan chalg'itadilar;

4) ixtiyoriy ruhiy tartibga solish bo'lman taqdirda o'z xohishiga ko'ra bir ob'ektdan ikkinchisiga o'tish imkoniyati yo'qligi;

5) bolalarning yoshiga qarab, bolalar qanchalik kichik bo'lsa, ular kattalarning so'zlariga shunchalik kam e'tibor berishlari mumkin, chunki ularning e'tiborini yorqin, jozibali narsalar ko'proq jalb qiladi (so'zlar faqat ularga hamroh bo'ladi) ularni tug'diradi)) o'rta va kattaroq maktabgacha yoshdagi kattalar so'zlar bola uchun muhimroq ahamiyatga ega bo'lib, u o'zini o'zi faol ravishda ularga e'tiborini qaratadi;

6) diqqatning zaif taqsimlanishi (bir vaqting o'zida ikki yoki undan ortiq faoliyat turlarini bajara olmaslik), kichik hajm (qisqa vaqt ichida ko'plab ob'ektlarni o'z ichiga olmaslik) Bolalar nutqini o'stirish metodikasining mazmuni maktabgacha ta'limda bolalar og'zaki nutqini o'stirish, bolalarda kattalar, tengdoshlari bilan nutqiy muloqot, muomala qilishni bilishga o'rgatishdir. Maktabgacha ta'lim davrida bolalar 2-3 ming so'z boyligiga ega bo'lish va undan foydalanish, eshitganlarini aytib berish, ko'rganini gapirib berish, suratlarga qarab mazmun bo'yicha hikoya tuzish va uni aytib berish, asosiy tayanch so'zlar yordamida hikoya tuzishga o'rgatiladi. Shuningdek, nutqning ifodaliligi, nutq tovushlarini to'g'ri, aniq talaffuz etish, tilning grammatik shakllaridan nutqda to'g'ri foydalanish, badiiy asarni tinglash, tushunish, mazmunni eslab qolish va so'zlab berish, asar qahramonlari nutqi xususiyatlarini ajrata bilish, obrazli bayon etish kabi amaliy intellektga ega bo'lishni

rivojlantiradi, maktabga nutqiy jihatdan tayyorlaydi. Maktabgacha ta'limda "Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va texnologiyalari" fanining vazifalari quyidagilardan iborat.

1. Bolalar bog'lanishli nutqini o'stirish.
2. Bolalar lug'atini boyitish.
3. Nutqning grammatik tomonini tarbiyalash, so'zlarning gapda o'zaro birikishi va gap hosil qilish uchun zarur bo'lgan turli grammatik shakllar, qo'shimegalardan foydalanishni o'rgatish.
4. Nutqning tovush tomonini tarbiyalash, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish, ovoz-oqangni tushunish, nutqiy nafas olishni to'g'ri bajarishni shakllantirish.
5. Maktabgacha ta'limda bolalarning nutqni tushunish, tinglash malakalarini shakllantirish, kattalarga nutq orqali murojaat qilish, diologik va monologik nutqini o'stirish, hikoya tuzishga o'rgatish.
6. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish, badiiy asarlar, ertak, hikoyalarni o'rganish, kitobga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, asar mazmunini tushunish, obrazlar xususiyati, nutqini ajrata bilishga o'rgatish.
7. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tafakkurini rivojlantirish va maktabga tayyorlash. Kichik yoshdagи bolalar nutqini o'stirish vazifalari. Uch-besh yoshli bolalarda kattalarning mehriga, ularning tushunishiga va u bilan muloqot qilishiga ehtiyoj saqlanib qoladi. Kattalarga nisbatan ishonchga asoslangan muloqot va uning emotsiyonal ahvolini (quvonch, zavq-shavq, qayg'u, xotirjamlik, jahldorlik va h.k.) his qilishga, kayfiyat o'zgarganligi sabablarini tushunishga qodirlik rivojlanadi. Kattalar bilan muloqotning yangi shakli qiziqarli mavzularda muloqot qilish vujudga keladi va rivojlanadi. U dastlab kattalar bilan birgalikdagi bilish faoliyatiga (masalan, o'yin, predmetlar va o'yinchoqlar bilan tajriba o'tkazish, qog'ozdan va tabiiy materialdan narsa yasash va boshq.) qo'shilib ketgan, so'ngra, bola hayotining beshinchi yili oxiriga kelib muayyan vaziyat bilan bog'liq bo'limgan bilish mavzularidagi «nazariy muloqot ko'rinishiga ega bo'ladi. Bolalarning katta yoshli odam bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojining qondirilmasligi ular o'rtasida emotsiyonal jihatdan begonalashuvga olib keladi. U turli ko'rinishda namoyon bo'ladi: ba'zi bolalar indamas, hurkak, arzimagan narsaga ham yig'lab yuboruvchi bo'lib qoladilar; boshqalari esa negativizm, tajovuzni namoyon qilishadi. Maktabgacha yoshdagи bolalar nutqini rivojlantirish "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida belgilangan bolalarga ta'lim berishda kompetentsiyaviy yondashuvning muhim qismi sanaladi. 6-7 yoshli bolaning umumiy muhim kompetentsiyalari sifatida birinchi navbatda, kommunikativ kompetentsiya, ya'ni muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasini shakllantirish belgilangan. Demak, tarbiyalanuvchilarning o'yin, bilish va ijtimoiy kompetentsiyasi qatorida muloqot kompetentsiyasi asosiy o'rinni egallaydi. Shunday ekan, MTTda har bir ta'limiy faoliyat mazmunida bolaning nutqini o'stirish va muloqotchanlik ko'nikmalarini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bola yangi bilimlarni o'yinlar va didaktik vositalar asosida o'zlashtirganida samaradorlik yuqori bo'ladi. Ya'ni badiiy adabiyotni oddiy o'qib berishdan ko'ra innovatsion ta'lim

texnologiyalarini qo'llagan holda faoliyatga tatbiq etish har bir bolaning nutqini rivojlantirish jarayonini ta'minlaydi, tezlashtiradi va shu bilan ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Buning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va jarayonda faol qo'llash talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini shakllantirish muhim va qiyin vazifadir. Ushbu muammoni muvaffaqiyatlari hal qilish ham bolalarni yaqinlashib kelayotgan maktabga tayyorlash uchun, ham boshqalar bilan qulay muloqot qilish uchun zarurdir. Shunday qilib, an'anaviy ravishda badiiy asarlarni o'qib berishdan ko'ra innovatsion shaklda badiiy asar bilan tanishtirishning amaliy afzalliklarini tasniflaymiz. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun an'anaviy ta'limiy faoliyat tarbiyachining hikoya qilib berishi, o'qib berishi va takrorlatgan holda yod oldirishini tan oladi. Ammo tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalar tarbiyachining hikoyasini kichik o'zgarishlar bilan takrorlaydilar, hikoyalar kambag'al so'zlar vositasida talqin qilinadi xolos. Shuning uchun, hikoyani o'qib berish jarayni nihoyasiga yetgach, bolalardan qayta hikoya qilib berish emas, shu hikoya asosidagi aralash kartinkalarni magnitli doskaga o'z o'rniغا ko'ra terib chiqishini talab etadigan "Rasmlarning o'rmini top" o'yini bolalarni faol nutqiy vaziyatga undaydi. Ular voqealar ketmaketligiga ko'ra rasmlarni izlab topish jarayonida nafaqat nutqi balki, diqqati, kuzatuvchanligi, mantiqiy fikrashi rivojlanadi. O'zlari hosil qilayotgan hikoya kompozitsiyasini kuzatish tarbiyalanuvchilarni faollashtiradi va yangi so'zlar bilan tasvirlashga urinadi. Ushbu faoliyat bolalarni zerikishdan himoya qiladi, butun guruhni qayta hikoya qildirishga imkon bo'lмаган тақдирда, бу усул vositasida barcha bolalar ish jarayoniga jalb etiladi. Ayniqsa tarbiyachi asosiy ijrochi roldan kuzatuvchi darajasiga statusini o'zgartirishi bolalarga erkinlik beradi. Pedagogning ijrochi-bolalar xatti-harakatlarini rag'batlantirishi esa nutqiy faollikka yo'l ochadi. Shu kabi innovatsion texnologiyalarni tanlashda quyidagi talablarga e'tibor qaratish kerak:

- texnologiyani o'qib berish emas, balki bolalarning muloqot qobiliyatini rivojlantirishga, nutq madaniyatini tarbiyalashga yo'naltirish;
- har bir bola uchun uning yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har xil faoliyat turlarida faol nutq amaliyotini tashkil etish. Zamonaviy amaliyotda maktabgacha ta'limni maktabgacha ta'lim chiqishi masalalarni talab qiladigan bir qator muammolarni amalga oshirmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, shu jumladan multimedia vositalari, mobil ilovalar va virtual haqiqat (VR) kabi innovatsion usullar, bolalarning diqqatini rivojlantirishda samarali vosita bo'lishi mumkin.1. Multimedia vositalari: raqamli ta'lim platformalari, video darslar va interaktiv taqdimotlar bolalarning diqqatini jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Rang-barang grafikalar va animatsiyalar yordamida bolalarning qiziqishini oshirish mumkin.2. Mobil ilovalar: nutqni rivojlantirishga qaratilgan mobil ilovalar, masalan, o'yin shaklidagi dasturlar, bolalarga o'z nutq ko'nikmalarini amaliyotda sinab ko'rish imkonini beradi. Ushbu ilovalar orqali bolalar o'yin orqali o'rganadilar va shu bilan birga diqqatni jamlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.3. Virtual haqiqat (VR): VR texnologiyalari bolalarga interaktiv muhitda o'z ko'nikmalarini sinab ko'rish imkonini beradi. Masalan, VR yordamida bolalar turli

vaziyatlarda nutqni ishlatishlari mumkin, bu esa ularning diqqatini rivojlantirishga yordam beradi.4. Interaktiv o'yinlar: o'yinlar orqali bolalar diqqatini jamlash va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Masalan, nutq terapevtlari tomonidan ishlab chiqilgan o'yinlar bolalarga yangi so'zlarni o'rganishda va ularni to'g'ri talaffuz qilishda yordam beradi.Zamonaviy texnologiyalar maktabgacha yoshdagi dizartriya nutq kamchiligiga ega bolalarning diqqatini rivojlantirishda samarali vositalar sifatida xizmat qiladi. Multimedia vositalari, mobil ilovalar va VR texnologiyalari orqali bolalar o'z ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Bunday yondashuvlar nafaqat bolalarning nutq rivojlanishiga, balki ularning ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini ham yaxshilashga yordam beradi. Nutq terapevtlari va ta'lim mutaxassislari ushbu texnologiyalarni qo'llash orqali bolalarga yanada samarali yordam bera olishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Oliy Majlisga murojatnomasi". O'zbekiston" 2017.
2. G'oziev E. Ontogenez psixologiyasi Nazariy- eksperimental tahlil. -T.: Noshir, 2010. – 356 b.
3. Do'stmuhamedova SH.A., Nishonova Z.T. va boshqalar Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013 – 343 b.
4. Yunusova G. S. THE OUTCOMES OF A STUDY PREPARING BOYS AND GIRLS AT YOUNG AGE FOR FAMILY LIFE IN CONDITION OF UZBEKISTAN //The Way of Science. – 2014. – C. 84.
5. Yunusova, G. S. «THE OUTCOMES OF A STUDY PREPARING BOYS AND GIRLS AT YOUNG AGE FOR FAMILY LIFE IN CONDITION OF UZBEKISTAN.» The Way of Science (2014): 84.
6. <https://www.interscience.uz/index.php/home/article/download/2267/1867>
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalar-nutqini-rivojlantirish/viewer>.
8. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12947_2_66C920175C96C5448C6EA491E10FE6F78E16DAD0.pdf